

“TASDIQLAYMAN”

**Nurota tuman hokimining
birinchi o‘rinbosari**



A.Bo‘riyev

2025-yil

Nurota tuman hokimligida o‘tkazilgan yig‘ilishi

BAYONI

- Raislik qiluvchi:** - **A.Bo‘riyev** – tuman hokimining birinchi o‘rinbosari
- Ishtirok etdilar:** - Tuman hokimining o‘rinbosarlari, kun tartibiga aloqador korxona va tashkilot rahbarlari

KUN TARTIBI:

Nurota tuman hokimligida yangi ishga qabul qilingan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida bilim va ko‘nikmalarini oshirish to‘g‘risida

(A.Bo‘riyev, O.Oxunjonov, Sh.Vafojev, A.Saidov, A.Allayev, G.Bobomurodova, Z.Boboyev,.... A.Bo‘riyev)

Yig‘ilishni tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Bo‘riyev kirish so‘zi bilan ochdi va yig‘ilish qatnashchilariga kun tartibidagi tuman hokimligida yangi ishga qabul qilingan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tasdiqlangan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirishning ahamiyati, mazkur hujjatlarning xizmat faoliyatida qat‘iy ijrosini ta‘minlash zarurligi haqida alohida to‘xtalib o‘tdi.

Shundan so‘ng seminar kun tartibiga muvofiq, tuman hokimligida yangi ishga qabul qilingan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tasdiqlangan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirish hamda mazkur yo‘nalish bo‘yicha o‘tkazilgan test sinovlari natijalari yuzasidan ma‘lumotlar berildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, sohaga oid Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati tushuntirib berildi. Xodimlarning xizmat faoliyatida korrupsiyaga yo‘l qo‘ymaslik, manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish, ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga rioya etish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Shuningdek, tuman hokimligida yangi ishga qabul qilingan xodimlar – tuman hokimligi ijro intizomi nazorati bo‘yicha bosh mutaxassisi – Nurmanov Nurali Otaqulovich, tuman hokimligi qurilish, to‘siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish

masalalari bo'yicha bosh mutaxassisi - Rajabboyev Azizjon Aminjonovich, tuman hokimligi bosh yuristkonsulti – Anvarov Usmonjon Anvar o'g'li korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tasdiqlangan normativ-huquqiy hujjatlar bilan belgilangan tartibda tanishtirildi.

Mazkur yo'nalish bo'yicha xodimlarning bilim darajasini aniqlash maqsadida test sinovlari o'tkazildi. Test natijalariga ko'ra, 100 ballik baholash tizimida Nurmanov Nurali Otaqulovich 75 ball, Rajabboyev Azizjon Aminjonovich hamda Anvarov Usmonjon Anvar o'g'li 70 ball to'plaganligi qayd etildi.

Seminar yakunida xodimlarga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni muntazam ravishda o'rganib borish hamda xizmat faoliyatida ularga qat'iy amal qilish bo'yicha tegishli tavsiyalar berildi.

O'quv-seminar ishtirokchilari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev rahbarligida 2025-yil 05-mart kuni bo'lib o'tgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Milliy kengash yig'ilishidagi ma'ruzasining mazmun-mohiyati va uni amalga oshirish bo'yicha muhokamalarni inobatga olib, quyidagilarni

Q A R O R Q I L A D I:

1. Tuman hokimligida yangi ishga qabul qilingan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tasdiqlangan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishtirish bo'yicha o'tkazilgan seminar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yangi ishga qabul qilingan xodimlar – tuman hokimligi ijro intizomi nazorati bo'yicha bosh mutaxassisi – Nurmanov Nurali Otaqulovich, tuman hokimligi qurilish, to'siqlarsiz muhit yaratish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha bosh mutaxassisi - Rajabboyev Azizjon Aminjonovich, tuman hokimligi bosh yuristkonsulti – Anvarov Usmonjon Anvar o'g'lining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar bo'yicha bilim darajasini aniqlash maqsadida o'tkazilgan test sinovlari natijalari inobatga olinsin.

3. Test sinovlari natijalariga ko'ra, 100 ballik baholash tizimida Nurmanov Nurali Otaqulovich 75 ball, Rajabboyev Azizjon Aminjonovich hamda Anvarov Usmonjon Anvar o'g'li 70 ball to'plaganligi ma'lumot uchun qayd etilsin.

4. Mazkur xodimlarga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni chuqurroq o'rganish, xizmat faoliyatida ularga qat'iy amal qilish hamda korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha zarur tavsiyalar berilsin.

5. Tuman hokimi o'rinbosarlariga, tuman hokimligining tegishli mas'ul rahbar va mutaxassis xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xodimlar o'rtasida huquqiy bilimlarni oshirishga qaratilgan tushuntirish va o'quv mashg'ulotlarini tizimli ravishda tashkil etish tavsiya etilsin.

6. Ushbu o'quv-amaliy seminar bayoni ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o'rinbosarlari hamda tuman hokimligi mas'ul xodimlari zimmasiga yuklatilsin.

Bayonnomani rasmiylashtirdi:

 **N.Nurmanov**